O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60530300
60530300-1.25
2024_ yil “10” 07

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____
R.I.Xalmuradov
2024 yil “__” _____

TARIXIY GEOLOGIYA
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500 000 -Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	530000 - Fizika va tabiiy fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60530300-Geologiya

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
TG1508/1608	2026-2027	5-6	4-4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		4

1.	fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	Tarixiy geologiya	52-50	68-70	120-120

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o’qitishdan maqsad** – «Tarixiy geologiya» kursi ma’ruzalarining asosiy maqsadi yer geologik tarixini davriylashdan iborat bo’lib, u xar bir bosqichdagi muxim‘xodisalar va tirik mavjudotlar evolyusiyasini o‘rganishdan iboratdir. Yerning tuzilishi xamda taraqqiyot tarixini o‘rganishga asos yaratishdir. **Fanning vazifasi** –Kursning vazifalari Yer tarixidagi xodisalar va geologik jarayonlar evolyusiyasi kursatilgan geologik vaqtning zamonaviy tushunchalariga bag‘ishlash. Yer evolyusiyasi va uning qobig‘i xosil bo‘lishi, shu jumladan yer qari va atmosfyera, gidrosfyera va biosfyera, tektonika va global geodinamikaga tavsif berishdan iboratdir.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Kirish. Taroxiy geologiya fanining predmeti va maqsadi** Tarixiy geologiya fani mineralogiya; geoximiya; litologiya; petrologiya; geofizika; tektonika; mutlaq geoxronologiya va boshqa fanlar bilano‘rganiladigan muammolarning umumiyligi bilan bir-biriga bog‘langan. Tarixiy geologiya ob’ektlari, maqsadi, vazifalari tamoyillari vaularni o’rganish uslublari. Yer qobig’ining xosil bo’lishi va tarkibi, tuzilishi xaqida umumiy tushunchalar.Yer tuzilishining geologik-geofizik modeli. Yer jinslari diffyerensiatsiyasi, endogen jarayonlar, energiya turlari va manbasi.
M2	**Tarixiy geologiyaning tekshirish usullari.** Yer po’stining tashkil etgan tog’ jinslarining yoshini aniqlash, yerning tarixiy rivojlanishini o’rganishga asoslangan, stratigrafiya tarixiy geologiyaning asosi xisoblanadi, qadimgi tog’ jinslarining belgilarini aniqlab, ularning hosil bo’lish sharoitlarini tiklash, fatsial analiz usullari, yer qatlamlarining farsiyalarga ajratilishi, vaqt davomida yuz beradigan tektonik jarayonlar, bir nechta fatsiya yotqiziqlari yig’indisi farmatsiyani tashkil qiladi, farmatsiya ma’lum bir tektonik harakat sharoitiga hosil bo’lgan cho’kindi (kontinental, dengiz, laguna) magmatik jinslarini o’z ichiga oladi.
M3	**Yer po’sti-materik va okean po’stining tuzilishi.** Yer shari yuzasi xilma-hil, past-baland relieftni hosil qilgan qattiq po’stdan iborat, po’st yuzasining ko’tarilgan qismi (qalinligi 30-40 km) quruqliklar, yani materiklar va ular orasidagi bo’shliqlar okeanlardan iborat, okeanlarning tag tuzilishi geologik va geomorfologik strukturalarga ajratiladi, yani okean tubi tog’liklari, yaxlit massivlar, plita va botiqlar.
M4	**Geosinklinalar va platformalar haqida tushuncha** Yer yuzasining ikkita katta megareliefga (materik va okeanlar) bo’linishi, yer po’sti va okean tubining bir jinsali emasligi, tarqqiyot tarixi bir xil emasligi
M5	**Yer po’stining burmalanish davrlari** Yer po’sti tarixida birinchi bor burmalanish davrlari, kembrijgacha bo’lgan davrdagi burmalanishlar, proterazoy erasi oxiridagi Baykal burmlanishi va davomiyligi, kembriy davridan hozirgi davrgacha bo’lgan burmalanishlar, koledon, gersin, kimmeriy. Kaynazoy erasidan alp burmalanishi va hozirgi zamon relifining hosil bo’lishi.
M6	**Arxey va proterazoy eralari** Yer qadimgi tog jinsi: ularni yoshi. Abissal toleitga tallukli, asos (bazalt, anortozit) tarkibli qadimgi yer qa’rini xosil bo’lishi xaqida taxminlar. Birinchi magmatik okeanlar xaqida fikrlar, ularning sayyoralar xosil bo’lishiga ta’siri. Yer rivojlanishidagi eoarxey bosqichi jinslarini Oy bazalt, iorit, anortozitlari bilan takkoslash. Oy, Mars, Myerkuriy vaVenyera asosiy strukturalar va ularning Yerdagi mumkin bo’lgan muqobillari.. Tonalit - trond’emit-granodiorit tarkibli protokontinent koranixosil bo’lishi; kul rang gneysli protokorlarni ayrim yoki xamma joylarga tarkalishi xaqida zamonaviy tushunchalar; qadimgi chukindi tog jinslari va birinchi prokariotlar paydo bo’lishi izlari. Pangey O kontinenti xosil bo’lishi. Mantiyada xaotik konveksiyasini kul rang protoralarni kurinishi.Riftogenez jarayonlari Granit-gneysli gumbaz, yashil slanetsli va granulit-gneysli poyas - arxey strukturasini asosiy tipi.
M7	**Paleozoy erasi (kembriy, ordovik, sillur davrlari)** Paleazoy (qadimgi hayot) erasi, davom etgan vaqti, kembriy, ordovik, sillur davrlariga geosinklinal va platformalar rivojlanishi, yotqiziqlarning qalinligi, yotqiziqlarda hayvonot va o’simlik qoldiqlarining uchrashi, vulqon harakatlarining ko’p bo’lganligi, geosinklinal oblatlarga intruziv va effuziv jinslar ko’p tarqalganligi.
M8	**Paleozoy erasi (devon, toshko’mir, perm davrlari)** Devon davri yorqiziqlari sillur davrdagilarga nomos yotishi, devon davri yotqiziqlari va organik qoldiqlari yaxshi saqlanganligi, turayli bo’lim va yaruslarga ajratilishi, koledon tog’ burmalanishi tufayli quruqliklar paydo bo’lishi, toshko’mir davrida ko’mir konlari ko’p uchraganligi, hayvonot va o’simlik dunyosi yaxshi rivojlanganligi, geosinklinallar va plarformalarda keskin o’zgarishi, perm davrida o’simlik va hayvonot olami yaxshi rivojlangan platformalar va geosinklinallarning o’zgarishi.
M9	**Mezazoy erasi (trias davri)** Mezazoy erasi (o’rta hayot), yer tarixida o’ziga xos geografik sharoitga ega bo’lishi, yosharishi jarayonlarning muhim ro’l o’ynashi, mezazoy erasida burmalanishdan payo bo’lgan quruqliklar, trias davri organik dunyosi, trias davrida vulqon jarayonlarining davom etishi, bu davrda koledon va gersin burmalanishidan xosil bo’lgan tog’larining yemirilishi.
M10	**Mezazoy erasi (yura davri)** Yura davri yotqiziqlari quruqlikda va okeanlar tagida tarqalganligi, yura davrida rivojlangan o’simliklar va hayvonot dunyosi, yura davridan platforma va geosinklinallarning keskin o’zgarishi, yura davri oxirida hamma quruqliklarda regressiya boshlanishi, yura davrida platforma biloyatlarida kontinental va dengiz yotqiziqlari hosil bo’ladi.
M11	**Mezazoy erasi (bo’r davri)** Bo’r davrida iqlim organik dunyo va reliefning o’zgarishi, quruqlikda yashagan umrtqali hayvonlar, bo’r davrida kimmeriy tog’ burmalanishining kamayishi va tabiiy geografik sharoitlarning o’zgarishi, regressiyaning davom etishi, bo’r davrida dengiz trasregressiyasining qayta boshlanishi, geosinklinal va platformalar chekkalrida bo’r davri ikkinchi yarmi va oxirida vulqon jarayonlari bo’lishi, geosinklinal o’lkalarida lavalar otilishi.
M12	**Kaynozoy erasi (poliogen davri)** Pangey 2 ning parchalanishi va Atlantika, Xind xamda SHimoliy Muz okeanlarining paydo bo’lishi. CHukur suv osti burgulash ishlari natijalarining muxim axamiyati; «Glyumyer CHelendjyer» va «Djoides» xalqaro loyihasi, okean va okean chekkalaridagi geofizik izlanishlar natijalari; geologik xodisaparni global takkoslashni xalqaro loyixasi.
M13	**Kaynozoy erasi (neogen davri)** Neogen davri ikki qismga bo’linishi, miogen, pliogen. Yotqiziqlarning tarkibi, hayvonot o’simlik qoldiqlarining bir xil bo’lmaganligi, alp tog’ burmalanishi jarayonidan materiklar orasidagi tog’larning qayta burmalanishi, alp burmalanishi burmalanish bosqichi davrida yer sharidagi geosinklinallarning o’zgarishi.
M14	**Kaynozoy erasi (to’rtlamchi davr)** To’rtlamchi davr yotqiziqlari yetarli darajada o’rganilishi, muz davri, muz yotqiziqlarining

	keng tarqalishi, alp tog' burmalanishing davomi, hayvon qoldiqlarining tubdab far qilishi, shunga qarab yotqiziq Q_1, Q_2, Q_3, Q_4 ga bo'linadi, to'rtlamchi davr organik dunyosi boshqa davrlarga nisbatan yaxshi taraqqiy etishi, to'rtlamchi davrda alp tog' burmalanishlarinig yangi tog' bo'lishi, hozirgi zamon relief vujudga kelishi.
M15	**15-mavzu. Yer po'stining rivojlanishi haqida gipotezalar** Yer po'stining rivojlanishi to'g'risidagi M.Lomonosov fikrlari, yerning rivojlanishi qonuniyatlarini yaratgan Jeyms Jennet g'oyalari, Kant-Laplas nazariyalari, Eli-de-Bomonning yer shari sovib siqlishidan paydo bo'lishi gipotezasi, A.Begenning "Quruqlikning gorizantal surilishi" gipotezasi, M.A.Usov gipotezasi "Yer materiklarning rivojlanishi" nazariyasi, V.Belisov gipotezasi, V.Popov yadro gipotezasi.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy (A) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
A1	Tarixiy geologiyaning tekshirish usullari (stratigrafiya, fatsial analiz, formatsiya).
A2	Dunyo tektonik haritasi. Platformalarni tahlil qilish
A3	Geosinklinallarni rivojlanishi ko'rsatgichlarini o'rganish.
A4	Quyi kembriy davrini poligeografik xaritasini tahlil qilish va o'rganish
A5	Quyi perm davrining poligeografik xaritasini tahlil qilish va o'rganish
A6	Yuqori bo'r davrining poligeografik xaritasini tahlil qilish va o'rganish
A7	O'rta paleogen davri poligeografik xaritasini tahlil qilish va o'rganish
A8	To'rtlamchi davrdagi (Dnepr) muz bosish xaritasini tahlili
A9	Tyanshan tog' muzliklarining xaritasini o'rganish
A10	Paleazoy erasining geosinklinal va plarformalarini o'rganish va tahlil qilish.
A11	Mezozoy erasidagi geosinklinallar va platformalarni o'rganish va tahlil qilish
A12	Kaynazoy erasi paleogen davridagi geosinklinallar va platformalarini o'rganish va tahlil qilish
A13	To'rtlamchi davrdagi quruqlik va geosinklinallar tahlili
A14	A. Vegener fikri bo'yicha materiklarning paydo bo'lishining o'rganish va tahlil qilish
A15	Yer shakllanishiga tog' paydo bo'lish jarayonlarining yer ichki harakatlaridan kelib chiqishini tahlil qilish

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Tarixiy geologiya" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
	Yer geologik rivojlanish tarixining paleoprotyerozoy bosqichi
	Yer geologik rivojlanish tarixining mezoprotyerozoy bosqichi
	Yer geologik rivojlanish tarixining neoprotyerozoy - quyi mezozoy bosqichi.
	Yerta paleozoy davri
	Yerning geologik rivojlanish tarixining Eoarxey bosqichi
	Yerning geologik rivojlanish tarixining Arxey bosqichi
	Yerning geologik rivojlanish tarixining Kechki protyerozoy bosqichi.
	Yer po'sti strukturasining shakllanish tarixi
	Yerning geologik rivojlanish tarixining erta mezozoy bosqichi

"Arxeologik dala tadqiqot usullari va topilmalarga ishlov berish" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, yer shakllanish davrlashtirish, hamda har bir davrda yer yuzasining holati, yuzaga kelgan o'zgarishlar, geologik qatlamlarning shakllanish va qarlamlar tarkibi, relief shakllanish holati organiladi, geogronologik shkala bo'yicha yer yuzasida har bir era va davrlarda yuzaga kelgan o'zgarishlar glabal hamda hududiy kartalashtirish ishlari bajariladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - Yer evolyusiyasining geologik tarixi; yer pustining xosil bo'lishi va tarkibi, tuzilishi; mantiyadagi konvektiv okimlar: plyumlar va sleblar xamda ularning Yer modsasi diffyerensiatsiyasidagi roli xaqida ***tasavvurga ega bo'lishi*** • - Yer davriyligining asosi - muxim global geologik jarayonlarni va xodisalarni; yer jinslari getyerogen va gomogen akkretsiya nazariyasi xosil bo'lishini; eoarxey (oy) bosqichni; yer rivojlanishidagi eoarxey bosqichi tog jinslari; Oy, Mars, Myerkuriy va Venyera asosiy strukturalarini va ularning Yerdagi mukobillarini ***bilishi va ulardin foydalana olishi.*** • - Tarixiy geologik sharoitni qayta tiklash; yer ka'rini tektonik xududlashtirish ***kunikmalariga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** ma'ruzalar; intyerfaol keys-stadilar; Aqliy hujum, muammoli talim, SWOT tahlil, klastyer, munozara, o'z-o'zini nazorat, blits so'rov.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida byerilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Фатхуллаев Г.А.Дусанов С.Т. Тарихий геология палеонтология асослари билан. Т., "Ўқитувчи", 2000.
2. Хайн В.Е.- Тектоника континентов и океанов, изд. Научный мир, 2001.
3. Sh.Shoraxmedov. Umumiy va tarixiy geologiya. O'qtuvchi. Toshkent-1985.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

4. Хайн В.Е., Короновский Н.В., Маманов Н.А.- Историческая геология, изд. МГУ, 1997.
5. Владимирская и др.- Историческая геология с основами палеонтологии. М., «Недра», 1985.
6. Геология и полезные ископаемые Республики Узбекистан, ред. Шоякубов Т.Ш., Далимов Т.Н., изд. Университет, 1998.
7. Геология континентальных окраин, ред. Берк К. и Дрейк, т. I-IH, изд. Мир, 1978.

AXBOROT MANBALARI:

8.www. ziyonet.uz

9.www.geo.web.ru

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgustdagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **Raxmanov B.** – SamDU, Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi professori, t.f.n.
9.	**Taqrizchilar:** **Mamajonov R.** - SamDU, "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi mudiri, dotsenti, g.f.n. (+998 93 336 63 53) **Jo'raqulov X.** – SamDU, "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi professori, g.f.n. (+998 93 352 09 28)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Xaydarov S.

Kafedra mudiri: **dots.B.A.Meliyev**

Fakultet dekani: **prof. S.B.Abbasov**

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorektor: **prof. A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi professori B.Raxmanov tomonidan 60530500-geologiya (faoliyat sohasi bo'yicha)ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun "Tarixiy geologiya" fanidan fan dasturiga

T A Q R I Z

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida bugungi kunda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlarga muvofiq ravishda, davr talabiga mos keladigan, yuqori malakali gidrologiya bakalavrlarini tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada **60530500-geologiya (faoliyat sohasi bo'yicha)** ta'lim yo'nalishi namunaviy o'quv rejasiga kiritilgan "**Tarixiy geologiya**" o'quv fani alohida o'rin egallaydi.

Taqriz etilayotgan fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti Geologiya va gidrometeorologiya kafedrasi dotsenti **B.Raxmanov** tomonidan yuqorida qayd etilgan yo'nalishning Malaka talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Dasturda qayd etilganidek, fanni o'zlashtirish jarayonida talabalar, yer taraqqiyotining har bir bosqichini, alohida davrlarga ajratgan holda o'rganib, geologiq qatlamlarning yotishi, strukturasi, tarkibi, relief hosil bo'lish sharoitlerini o'rganadi. Bundan tashqari tarixiy geologik jarayonlarni o'rganish hamda kartalashtirish usullarini amalda qo'llay bilish bo'yicha malaka va tajriba hosil qilishdan iborat.

Dasturning asosiy, ya'ni ma'ruzalar mavzulari qayd etilgan qismida yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalar o'zining to'liq aksini topgan. Ushbu bo'limda fanni o'rganish maqsadida keltirilgan mavzular o'zaro o'zviy bog'langan bo'lib, bir-birini mazmunan to'ldirib boradi.

Dasturda bajarilishi rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar va ularning mavzulari esa barcha nazariy bilimlarni qamrab olgan bo'lib, ularni amalga oshirish talabalar bilimini yanada mustahkamlaydi.

Sir emaski, har bir fanni o'rganishda bu jarayonga imkon beradigan manbalardan, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalari va hatto ilmiy monografiyalardan foydalanish o'rinlidir. Fikrimizcha dastur so'ngida mualliflar tomonidan keltirilgan adabiyotlar ro'yxati shu masalalarni hisobga olgan holda jamlangan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarimizga xulosa qilib aytganda, SamDUda **B.Raxmanov** tomonidan tuzilgan "**Tarixiy geologiya**" fanining fan dasturi shu fanni o'rganish bo'yicha **60530500-geologiya (faoliyat sohasi bo'yicha)** yo'nalishining Malaka talablarida qayd etilgan vazifalarga to'la javob beradi va uni tasdiqqa tavsiya etaman.

SamDU, "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi professori, g.f.n. **Jo'raqulov X.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat unversiteti Geografiya va ekologiya fakulteti "Geologiya va gidrometeorologiya" kafedrasi professori B.Raxmanov tomonidan 60530500-geologiya (faoliyat sohasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabalari uchun "Tarixiy geologiya" fanidan fan dasturiga

T A Q R I Z

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida bugungi kunda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlarga muvofiq ravishda, davr talabiga mos keladigan, yuqori malakali geologiya bakalavrlarini tayyorlash dolzarb ahamiyatga ega. Bu borada 60530500-geologiya (faoliyat sohasi bo'yicha) ta'lim yo'nalishi namunaviy o'quv rejasiga kiritilgan "Tarixiy geologiya" o'quv fani alohida o'rin egallaydi.

Taqriz etilayotgan fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti Geologiya va gidrometeorologiya kafedrasi dotsenti B.Raxmanov tomonidan yuqorida qayd etilgan yo'nalishning Malaka talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Dasturda qayd etilganidek, Tarixiy geologiya fani talabalarga yer geologik tarixini davriylashdan iborat bo'lib, u xar bir bosqichdagi muxim xodisalar va tirik mavjudotlar evolyusiyasini o'rganishdan iboratdir. Yerning tuzilishi xamda taraqqiyot tarixini o'rganishga asos yaratishdir. Yer tarixidagi xodisalar va geologik jarayonlar evolyusiyasi kursatilgan geologik vaqtning zamonaviy tushunchalariga bag'ishlash. Yer evolyusiyasi va uning qobig'i xosil bo'lishi, shu jumladan yer qari va atmosfyera, gidrosfyera va biosfyera, tektonika va global geodinamikaga tavsif berishdan iboratdir.

Dasturning asosiy, ya'ni ma'ruzalar mavzulari qayd etilgan qismida yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalar o'zining to'liq aksini topgan. Ushbu bo'limda fanni o'rganish maqsadida keltirilgan mavzular o'zaro o'zviy bog'langan bo'lib, bir-birini mazmunan to'ldirib boradi.

Dasturda bajarilishi rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar va ularning mavzulari esa barcha nazariy bilimlarni qamrab olgan bo'lib, ularni amalga oshirish talabalar bilimini yanada mustahkamlaydi.

Sir emaski, har bir fanni o'rganishda bu jarayonga imkon beradigan manbalardan, ya'ni darsliklar, o'quv qo'llanmalari va hatto ilmiy monografiyalardan foydalanish o'rinlidir. Fikrimizcha dastur so'ngida mualliflar tomonidan keltirilgan adabiyotlar ro'yxati shu masalalarni hisobga olgan holda jamlangan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarimizga xulosa qilib aytganda, SamDUda B.Raxmanov tomonidan tuzilgan "Tarixiy geologiya" fanining fan dasturi shu fanni o'rganish bo'yicha 60530500-geologiya (faoliyat sohasi bo'yicha) yo'nalishining Malaka talablarida qayd etilgan vazifalarga to'la javob beradi va uni tasdiqqa tavsiya etaman.

SamDU, "Geografiya va tabiiy resurslar" kafedrasi dotsenti, g.f.n **Mamajonov R.**